

## **TALABALAR OVOZIGA MOS REPERTUAR TANLASHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI**

**Rabbimova Durдона Ravshan qizi,**  
Musiqqa madaniyat fakultetning  
III- bosqich talabasi  
**Muxamedziyanov Kamil Taxirovich,**  
Ilmiy rahbar, A.Qodiriy nomidagi  
JDPI o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq va pedagogik OTM "Musiqqa ta'limi" yo'nalishi uchun mo'ljallangan "An'anaviy xonandalik" fani dasturi asosida tayyorlangan. Maqolada "An'anaviy xonandalik" faniga oid ta'limning mavzulari, dars o'tish metodlari, talaba yoshlarga kelgusi pedagogik jarayoni uchun tavsiyalar, fan dasturida tavsiya etilgan o'zbek maqom kuy va qo'shiqlari, xalq ijrochilik va fol'klor qo'shiqlarining jamoa bo'lib kuylash uchun va tinglash uchun tavsiya etilgan musiqqa asarlari ketma-ketlikda berilgan bo'lib, ularga qo'shimcha mustaqil o'rganish uchun musiqqa asarlari kiritilgan.

**Kalit so'zlari:** Mumtoz musiqqa, xonanda, repertuar, ijrochilik, an'anaviy qo'shiq, g'azal.

Talaba xonandalarning mumtoz musiqqa merosining shakllanish davridan boshlab ijrochilar amaliyotida xonandalar psixologiyasi (ruhiyati) asosida odatga aylanib boradigan va shaxs tabiatining omillariga aylanadigan jarayonlar yuzaga kelgan. Musiqqa yaratilishi, ijrochiligi bu yakuniy masala, ya'ni vaziyat taqozosi hamda namoyish tartibi bo'yicha asarlar ijro etilib kelingan. Lekin, muayyan bir xonandaning shakllanishini va kamolotga erishish yo'lida xonandaga xos omillarni to'g'ri hal qilish katta ahamiyatga ega. Musiqqa bilimdonlari va allomalari ustozshogird an'anasida, avvalo shogirdning ana shu tomoniga e'tiborni qaratganlar.

Ayrim san'atda xonandalarning shaxsiy fiziologik, tabiiy va ruhiy holatlari bilan bog'lik bo'lgan bir qator unsurlar mavjud. Bu unsurlar xonandaning avlodi, oilasi, o'sib ulg'aygan muhit, yashash makoni, davri, do'stlari va nihoyat jamiyatdagi o'rnini bilan harakterlanadi. Albatta, xonandaga bo'lgan munosabat, hurmat va izzat ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bularni barchasini uyg'unlashuvida xonandaning ishq, hohishi va istagi asosiy mezonni (rolni) bajaradi. Ustozlarning «shogirdlarni imkoniyatlariga qarab asar tanlash lozim»

degan ishoralari zaminida ana shu muammolar aks ettiriladi. Zamonaviy til bilan aytganda, xonandaning ijro repertuari, aynan shu masala hisoblanadi. Demak, bu jarayonlar qanday izohlanadi? Xonanda aslida o'z ijro repertuari bilan elga taniladi. Ijro repertuar esa, biz yuqorida keltirganimizdek, turli saviyadagi ovoz va imkoniyatli xonandalar uchun bir-biridan farqli tarzda tarkib topadi. Ijro ham shunga hos shakllanadi. Aslida bu jarayon puxta o'ylangan va imkoniyatlar doirasida va ijrochining ta'bi negizida tuzilishi taqozo etiladi. Avvalo, ijro repertuari xonandaning o'zi tanlashi lozim. Bu hohish va imkoniyat bilan xarakterlanadi. Chunki, xonandaning ishqini bir asarga tushsa uning o'zlashtirilishi va idroklanishi oson kechadi. Bilimli va mohir xonandalarda bu jarayon mas'ullik mezoni bilan izohlanadi.

Ijro repertuari tanlashda quyidagi 4 ta mezonga e'tibor qaratisa maqsadga muvofiq bo'lishi begumondir:

- Ijrochining xonishdagi saviyasi,
- O'quv darajasi (xonandalik sohasidagi darajasi),
- Ovoz imkoniyatlari (mumtoz musiqada boshqa janrlar kabi musiqiy namunalar ovoz tanlaydi. Shu bois, har bir xonanda o'z ijrosi uchun tanlaydigan asarlariga e'tibor bilan yondoshishlari lozim);

- Bilim miqdori.

Xonandalikda yo'nalish ko'p. Shu bois, o'zlashtirish jarayoni bosqichma - bosqich tarkib topishi muqarrar va juda muhim. Xonandalikda birdaniga yirik asarni o'zlashtirib aytish yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Zero, amaliyotda muhlislar tomonidan idrokli ijro juda ardoqlanadi. Yirik asarning yirik muammolari bo'ladi. Uni yechimini topish uchun yirik quvvat, saviya va mahorat lozim bo'ladi.

Mumtoz asarlarning turli mushkillikdagi namunalari mavjud. Har qanday asar musiqaning qaysidir bir jihatlariga mos keladigan mushkilliklariga ega bo'ladi. Masalan, ayrim asarlarning diapozoni juda keng bo'ladi. Lekin, ijrochilik jihatidan unchalik murakkab mezonlarga ega bo'lmasligi mumkin. Yoki, asar murakkab usulga asoslangan, uni mutanosib saqlash hammani ham qo'lidan

kelavermaydi. Ya'ni, murakkab usul bilan aytiladigan asarlarni barcha jixatlarini mutadil saqlash ancha mushkul va mahorat talab etadi. So'z-matn vazni, musiqiy usul hamda barcha tomonlarning uyg'unligidagi ohangni murakkab, lekin salohiyatli yaratilganidir. Uning inson ruhiyati uchun zarur bo'lgan mag'zi ham shunda bo'lishi mumkin. «Hofiz» erishish lozim bo'lgan cho'qqilardan biri ana shunday murakkab asarlarni me'yoriga yetkazib ijro etishni o'zlashtirishidir. Qolaversa, shunday asarlar mavjudki, ularda bir nechta usullar almashib kelishini kuzatish mumkin. Masalan Yu. Rajabiyning «Ne navo soz aylagay» ashulasi. Uni o'zlashtirish uchun ustozning aniq ko'rsatmalari va sabog'i lozimdir. Bu muammoning bir tomoni.

Repertuar tanlashdagi yana bir masala bu-asarni ovoz imkoniyatlariga mos kelishi. Odatda, mumtoz musiqa namunalarining aksariyati shiddatli ovoz, baland avjlarda tarannumni talab etadi. Shu bois, qayd etish joizki, xonandaning ovozi bo'lishi mumkin, lekin unga shiddatli tus bera olmasligi mumkin. Shiddat esa, asarga ulug'vorlik, buyuklik, to'laqonli xususiyatlarni singdiruvchi jihat xisoblanadi. Aksincha, ovoz ko'proq lirik xususiyatlar bilan sug'orilgan bo'lishi mumkin. Unda ovoz tabiatidan kelib chiqib urg'uni unga mos sifatli asarlarga karatish ijobiy natijalarning garovidir.

Repertuar tanlashning eng muhim va jonli jarayonda katta e'tibor talab etuvchi tomoni xonandaning ichki dididir. Bu tuyg'u xonandaning tinglovchi bilan muloqotini mustaxkamlashi va samara berishini ta'minlab beradi. Unga ko'ra xonanda tinglovchilar davraning talabini to'g'ri baholashi lozim va repertuaridan shunga mos asar tanlab ijro etishi lozim bo'ladi. Musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalariga o'rgatiladigan repertuarlarni tanlashda quyidagilarga amal qilish lozim deb xisoblaymiz.

Albatta qo'shiq kuylash jarayonida o'quvchining shu qo'shiqni o'rganishga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqini ham hisobga olish zarur. Bu esa o'z-o'zidan sevgi-muhabbat mavzusiga ham murojaat etishni talab qiladi. Bunday sharoitda she'r mazmunidagi badiiy saviyasi yuqori bo'lgan, ishqiy munosabatlar mohirona

pardozlangan asarlarni tanlashni tavsiya etamiz. Masalan: Alisher Navoiy gʻazali bilan aytiladigan quyidagi ashulani koʻrsatishimiz mumkin:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulroʻ kelmadi.

Koʻzlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqdimu, chekdim yoʻlingda intizor.

Keldi jon ogʻzimgayu ul shoʻxi badxoʻ kelmadi.

Yoki Fuzuliyning gʻazallaridan quyidagi parchani koʻrsatishimiz mumkin.

Gʻamzasin sevding koʻngul joning kerakmasmu senga

Tigʻa urding jismi uryoning kerakmasmu senga

Otashin ohimla aylarsan menga taklifi bogʻ

Bogʻbon gulbargi xandoning kerakmasmu senga.

Yuqorida keltirilgan namunalar mumtoz adabiyotimizdan boʻlib, ular gʻazal janrida yozilgan va unga bastalangan ohanglar qoʻshiq emas ashula hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz qoʻshiqchilik bilan shugʻullanayotgan talabalar uchun ayniqsa, uchinchi davrda qilinadigan ishlar koʻpayadi. Ashulachilikka xos milliy bezaklarni qoʻllay olishi: nola, qochirim, ovozni yoyish, tebrantirish, tovlantirish, salmoqlab meʼyoriga yetkazish kabi murakkab bezaklardan foydalanishning yangi-yangi variantlaridan foydalanish yoʻllarini izlash yoʻlidagi yangi harakatlar, xonandaning oʻz mustaqil uslubini yaratishga ham olib kelishi mumkin. Oʻz ustida ishlashni toʻxtatgan hofiz, ashulachi oʻsishdan ham toʻxtaydi. Mumtoz ashulachinig oʻzi ham oʻz ovozini tarbiyalash ustida tinimsiz ish olib borishi talab etiladi. Shu oʻrinda mashhur ashulachi Shalyapinning qoʻshiqchilikka xos muhim bashoratini eslatib oʻtish oʻrinlidir. Uning fikricha har bir ashulachi oʻz ichini ikki kishiga boʻlgandek his qilishi lozim. Birinchi ashulachi sifatida u professional darajada kuylasa, ikkinchi ashulachi sifatida u oʻz ijrosini muntazam nazorat qilib borishi, oʻzining yutuq va kamchiliklarini belgilab, uni tuzatish yoʻllarini oʻylab borishi lozim. Bu esa, kuylovchiga yanada kattaroq masʼuliyat yuklaydi va muhim axamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. Toshkent Ma'naviyat nashriyoti 2008- yil.
2. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. T., O'zbekiston. 2017-yil. O.Matyoqubov."Maqomat". Toshkent. Musiqa nashriyoti. 2004- yil.
3. I. Rajabov. "Maqom asoslari". O'rta va oliy o'quv yurtlari uchun metodik qo'llanma. O'zbekiston madaniyat vazirligi madaniyat bo'limi. Toshkent 1992- yil 90-bob
4. O.Fayziev. Musiqa o'qitish metodikasi Toshkent 1997 yil.
- 5.G.A.Gudkova, A. B. Vasileva Ashula darslari metodikasi Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1993 yil.
6. M.Rizaeva. Yosh xonandaning kamoloti. Toshkent. Cho'lpon nashriyoti 2003 yil.